

340.132.8(575.1)

**FUQAROLIK JAIYATI INSTITUTLARI TOMONIDAN TA'SIRCHAN
NAZORATNI O'RNATILISHI**

**СОЗДАНИЕ ЭФФЕКТИВНОГО НАДЗОРА СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ
ИНСТИТУТОВ ГРАЖДАНСКОГО ОБЩЕСТВА**

**ESTABLISHMENT OF EFFECTIVE CONTROL BY INSTITUTIONS OF
CIVIL SOCIETY**

Talapov Bahriddin Alijonovich

Namangan davlat universiteti

Falsafa fanlari doktori, professor

Umarov Murodjon Mamatkarim o'g'li

Namangan davlat pedagogika instituti

Gumanitar fanlar kafedrası o'qituvchisi

murodbek0512@gmail.com +998946745040

<https://orcid.org/0009-0008-0202-0888>

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada fuqarolik jamiyati tushunchasining mazmun mohiyati falsafiy va huquqiy jihatidan atroflicha o'rganildi. Shuningdek, jamoat birlashmalari hamda fuqarolik jamiyati institutlari haqida fikrlar bayon etilgan bo'lib, ushbu tuzulmalar tomonidan amalga oshiriladigan nazorat funksiyasini yoritib berishga harakat qilingan. Shu bilan birga normativ huquqiy hujjatlarda, prezident farmonlarida, davlat dasturlarida hamda qonun hujjatlarida jamoatchilik nazoratining qay darajada yoritilganligi haqida ma'lumotlar keltirib o'tilgan.

Kalit so'zlar: fuqarolik jamiyati, jamiyat, kommunal xo'jaligi, boshqaruv organlari, jamoatchilik palatasi, jamoatchilik kengashi, demokratik tamoyillar, O'zbekiston konstitutsiyasi, jamoat birlashmalari, konsepsiya, kasaba uyushmalari, siyosiy partiyalar.

АННОТАЦИЯ

В данной статье сущность понятия гражданского общества подробно исследована с философско-правовой точки зрения. Также были высказаны мнения об общественных объединениях и институтах гражданского общества, а также предпринята попытка уточнить контрольную функцию, выполняемую этими структурами. При этом информация об уровне общественного контроля содержится в нормативных правовых документах, указах президента, государственных программах и правовых документах.

Ключевые слова: Гражданское общество, общество, коммунальное хозяйство, органы управления, общественная палата, общественный совет, демократические принципы, Конституция Узбекистана, общественные объединения, концепция, профсоюзы, политические партии.

ABSTRACT.

In this article, the essence of the concept of civil society was studied in detail from the philosophical and legal point of view. Also, opinions were expressed about public associations and civil society institutions, and an attempt was made to clarify the control function performed by these structures. At the same time, information about the level of public control is covered in the normative legal documents, presidential decrees, state programs and legal documents.

Key words: Civil society, society, communal economy, governing bodies, public chamber, public council, democratic principles, Constitution of Uzbekistan, public associations, concept, trade unions, political parties.

KIRISH

Bugungi globallashuv hamda O'zbekiston Respublikasini yangi taraqqiyoti davrida davlatning rivojlanishi va taraqqiy topishida fuqarolik jamiyati institutlarining o'rni beqiyosdir. Fuqarolik jamiyati institutlari bilan jamoatchilik nazorati o'zaro zanjir usulida rivojlanadi. Boisi, bu ikki tuzilma va nazorat instansiyasi bir birini to'ldiradi. Ushbu fikrning yorqin misoli sifatida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev, "... mavjud muammolarni aniqlash, ularni chuqur tahlil qilish, yechimlari bo'yicha taklif ishlab chiqish, ijrosi ustidan

jamoatchilik nazoratini ta'minlashga ijtimoiy buyurtma asosida nodavlat notijorat tashkilotlarni keng jalb etiladi. Bu hamkorlik, eng avvalo, ta'lim, madaniyat, tibbiyot, ekologiya, qurulish, kadastr, transport, kommunal xo'jaligi, bandlik, ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish kabi muammoli sohalarda keng joriy etish maqsadga muvofiq bo'ladi"[5],- deb ta'kidlaydi.

Yuqoridagi fikrlarning yorqin na'munasi sifatida prezident xuzurida NNTlar manfaatlarini ifoda etish davlat va NNTlar o'rtasida mustaxkam aloqani ta'minlash borasida o'rtada manfaatlar muvozanatini ta'minlaydigan mustahkam vosita bo'lib xizmat qiladigan Jamoatchilik palatasi tashkil qilindi. Shuningdek, davlat hokimiyati va boshqaruv organlari tizimida jamoatchilik kengashlari faoliyati yo'lga qo'yildi. Ushbu tuzilmalarni tashkil etishdan ko'zlangan maqsad shuki, bir tomondan jamoatchilik kengashlarining rolini kuchaytirish, ikkinchi tomondan esa o'zaro manfaatdorlik hissini uyg'otishdan iboratdir [3].

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Fuqarolik jamiyati institutlarini rivojlantirish hamda ushbu tuzilmalarning jamiyat hayotidagi ro'lini oshirish haqida fikr yuritishdan avval fuqarolik jamiyati tushunchasiga to'xtalib o'tsak. Fuqarolik jamiyati bugun yoki yaqin o'tmishda paydo bo'lgani yo'q. Bu fenomen qadim tarixga borib taqaladi. Qadimgi yunon faylasufi Aristotel: - "Davlat nima ekanligini aniqlashdan oldin fuqaro tushunchasini aniqlab olish kerak, chunki davlat fuqarolar yig'indisi, fuqarolik jamiyatidan boshqa narsa emas",[7] - degan edi. Ehtimol, bu nazariya qaysidir ma'noda demokratik tamoyillar rivojlanib kelayotgan, fuqaro, chet el fuqarosi va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar hamda to'la huquqli va huquqsiz insonlar toifalari ajralayotgan Qadimgi Yunonistonda mavjud bo'lgandir. Shuningdek, anashu kishilarning to'la hajmdagi erkin fuqarolar toifasigina davlatni boshqarishda ishtirok etishi mumkinligidan kelib chiqib aytilgandir. Lekin boshqa ko'plab faylasuflar "Fuqarolik jamiyati" tushunchasini o'z asarlarida yanada rivojlantirdilar. Ushbu tushunchaga ta'rif berishda G.Gegel juda yaqin keldi. U fransuz, anglosakson va nemis ijtimoiy tafakkuri yutuqlarini tizimlashtirib,

fuqarolik jamiyati oiladan davlatga dialektik harakatning alohida bosqichini ifodalaydi, degan xulosaga keldi.

G.Gegel fuqarolik jamiyatini davlatning kelib chiqishi haqidagi shartnoma nazariyasi bilan bog'ladi [8].

Zamonaviy dunyoda xususan O'zbekiston konstitutsiyasining 13-bobi "Fuqarolik jamiyati institutlari" deb nomlanib, 69-moddasida shunday deyiladi: "Fuqarolik jamiyati institutlari, shu jumladan jamoat birlashmalari va boshqa nodavlat notijorat tashkilotlari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, ommaviy axborot vositalari fuqarolik jamiyatining asosini tashkil etadi.

Fuqarolik jamiyati institutlarining faoliyati qonunga muvofiq amalga oshiriladi" [1].

NATIJA VA MUHOKAMA

O'zbekiston konstitutsiyasining 39-moddasiga muvofiq "O'zbekiston Respublikasi fuqarolari kasaba uyushmalari, siyosiy partiyalarga va boshqa jamoat birlashmalariga uyushish, ommaviy harakatlarda ishtirok etish huquqiga egadirlar" kabi fuqarolarning jamiyatni boshqarishda ishtirok etishini kafolatlaydigan huquqiy asoslar e'tirof etilgan. Fuqarolarning jamoat birlashmalariga birlashishlari ixtiyoriy bo'lib, o'z ijtimoiy faolliklarini shu asosda amalga oshiradilar.

Bundan tashqari Fuqarolik kodeksining 74-moddasida ham jamoat birlashmalari haqida fikr yuritib shunday deyiladi: "Ma'naviy yoki o'zga nomoddiy ehtiyojlarni qanoatlantirish uchun o'z manfaatlarining mushtarakligi asosida qonunda belgilangan tartibda birlashgan fuqarolarning ixtiyoriy birlashmalari jamoat birlashmalari hisoblanadi"[2].

Mana shu institutlarning ko'magida ta'sirchan jamoatchilik nazoratini olib borilmoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2021-2025 yillarda fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmoni asosida "2021-2025 yillarda fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi" ishlab chiqilidi va quyidagilar Konsepsiyaaning ustuvor yo'nalishlari etib belgilandi:

1. fuqarolik jamiyatini rivojlantirishning huquqiy asoslarini izchil takomillashtirish;
2. fuqarolik jamiyati institutlariga ko'mak berish hamda ularni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash mexanizmini yanada takomillashtirish;
3. davlat va jamiyat boshqaruvida fuqarolik jamiyati institutlarining faol ishtirok etishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratish;
4. davlat ijtimoiy loyihalarini amalga oshirishda fuqarolik jamiyati institutlarining ishtirokini yanada kengaytirish;
5. fuqarolik jamiyati institutlari faoliyatining ochiqqligini ta'minlash **[4]**.

Yuqoridagi yo'nalishlar asosida mamlakatni rivojlantirish, jamiyatni demokratlashtirish va eng muhimi davlat boshqaruvida fuqarolik jamiyati institutlarini o'rni va rolini kuchaytirish maqsad qilib qo'yilgan.

Konsepsiyaning 1-yo'nalishda belgilangan ustuvor vazifa ya'ni, fuqarolik jamiyatini rivojlantirishning huquqiy asoslarini izchil takomillashtirish masalasi atroflicha ko'rib chiqilib qator xujjatlar qabul qilindi. Masalan O'zbekiston Respublikasining "Kasaba uyushmalari to'g'risida"gi, "Siyosiy partiyalar to'g'risida"gi, "O'zbekiston Respublikasida jamoat birlashmalari to'g'risida"gi, "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi to'g'risida"gi "Siyosiy partiyalar to'g'risida"gi bir qator qonun hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritildi.

Konsepsiyaning 2-yo'nalishi asosida fuqarolik jamiyati institutlariga ko'mak berish hamda ularni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash mexanizmini yanada takomillashtirish O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Jamoatchilik palatasi tashkil qilindi, shuningdek, aholi bilan ochiq muloqot olib borishning yangi samarali vositalarini joriy etish maqsadida davlat organlari huzurida jamoatchilik kengashlari faoliyati yo'lga qo'yildi **[4]**.

Konsepsiyaning 2-yo'nalishi asosida O'zbekistonda erkin fuqarolik jamiyati barpo etishning, davlat va jamoat tashkilotlari o'rtasidagi samarali hamkorlikni ta'minlashning, shuningdek, islohotlar natijadorligini oshirishning muhim vositasi sifatida "Jamiyat – islohotlar tashabbuskori" degan yangi g'oya asosida davlat,

fuqarolar, fuqarolik jamiyati institutlarining tizimli muloqotini yo‘lga qo‘yish masalalariga ustuvor ahamiyat qaratib kelinmoqda [6].

“Yoshlarni qo‘llab-quvvatlash va aholi salomatligini mustahkamlash yili” Davlat dasturining 16-bandi ijrosi doirasida tasdiqlangan mazkur Kontsepsiyaga binoan, yana bir qator yo‘nalishlar belgilangan bo‘lib, ushbu yo‘nalishlar doirasida qator amaliy sa’y-harakatlarni hayotga joriy etish nazarda tutilgan.

XULOSA

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash kerakki, murakkab ijtimoiy va falsafiy tushunchalardan biri bo‘lgan fuqarolik jamiyati tushunchasi, muayyan rivojlanish bosqichlariga ega hamda doimiy harakatdagi va takomillashtirib borayotgan tushunchadir.

Amalga oshirilayotgan islohotlar zahirida keng ko‘lamli ishlar tashkil qilinib, jamoatchilik nazoratining yangi va ta’sirchan usullari ishlab chiqilmoqda. Shuningdek, nazorati funksiyasini amalga oshirishda davlat hokimiyati va boshqaruv organlari, bundan tashqari nodavlat notijorat tuzilmalarining hamkorligini keng yo‘lga qo‘yilmoqda.

ADABIYOTLAR REFERENCES

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. -T.: “O‘zbekiston” 2023-y. -80 bet.
2. O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi. Birinchi qism.
<https://lex.uz/docs/-111189#-152301>
3. “2021-2025-yillarda fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 04.03.2021 yildagi PF-6181-son <https://lex.uz/docs/-5319756>
4. “2021-2025 yillarda fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni
<https://president.uz/uz/lists/view/4229>
5. Mirziyoyev Sh.M.ning Oliy Majlisga Murojaatnomasi.
<https://president.uz/uz/lists/view/4057>

6. Davlat va fuqarolik jamiyati tashkilotlarining mustahkam hamkorligi – huquqiy islohotlar samaradorligini taʼminlash yoʻlida "Taraqqiyot strategiyasi" markazi. 24 May. 2021 y. <https://strategy.uz/index.php?news=1299&lang=uz>
7. Аристотель. Политика. Сочинения в 4-х томах. М., 1983. Т. 4.
8. Гегель, Г. Философия права. М., 1990.
9. Umarov Murodjon Mamatkarim oʻgʻli. Oʻzbekiston Respublikasida inson huquq va erkinliklarini ta'minlanishi. Innovative Development in Educational Activities 2 (24), 358-362
10. B.Ataxanov. XIX-asrning oʻrtalari–XX-asrning boshlarida oʻzbek va belarus xalqlarida oila va nikoh munosabatlari.
11. B.Ataxanov. Zamonaviy ta'limda fan va innovatsion tadqiqotlar jurnali 1 (3), 210-218
12. Б.Б. Ибрахимов. Народная одежда—одно из проявлений материальной культуры в Средней Азии (XVIII—первая половина XIX веков) молодой учёный 1 (8), 812-814
13. Б.Б. Ибрахимов. ВНЕШНИЕ И ВНУТРЕННИЕ ОТНОШЕНИЯ БУХАРСКОГО ХАНСТВА С РОССИЕЙ//Журнал научных публикаций аспирантов и докторантов 1 (4), 129-131
14. Z. Abdullayev TURKISTONDA MOL-MULK MUSODARASI VA REKVIZISIYA //Scientific journal of the Fergana State University. – 2022. – №. 1. – С. 30-30.
15. Z. G. Abdullayev. Nature and society: relation and interrelation //Экономика и социум. – 2019. – №. 4 (59). – С. 3-5.
16. M.M. Umarov, A.N.Abdullayev. Jamoatchilik nazorati tarix va bugun. Ta'lim-tarbiya jarayoniga innovatsion yondashuvlar. Muammo va yechimlar mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi. 1-jild. 11-son. Noyabr. 2022-y. 1-qism.
17. A. Qambarov Kishilar ong ostiga ta'sir o'tkazish orqali ekstremistik oqimga jalb etish usullari va ularni reabilitasiya qilish yo'llari//Islom-tinchlik va bag'rikenglik dini" mavzuidagi Respublika ilmiy-amaliy onlayn konferensiyasi materiallari to'plami (04.06. 2020)

18. Абдуллаев, А. Н. (2020). Философский анализ феномена творчества. Вестник науки и образования, (3-3 (81)), 33-36.
19. Abdullayev, A. N. (2020). The features of appearing family in modern society. European Science Review, (3-4), 69-72.
20. Umarov M.M. THE ROLE OF THE MEDIA IN THE IMPLEMENTATION OF PUBLIC CONTROL. International journal of Social Sciences & Interdisciplinary Research. 11, 37-39
21. Umarov M.M. Public control - a sign of a democratic state. International journal of Social Sciences & Interdisciplinary Research. 11, 45-47